

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
TABIIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.U.Mahmudov <i>Zicrona caerulea</i> (Heteroptera) turining Farg'ona vodiysidagi ekologik xususiyatlari va biologik nazoratdagi ahamiyati.....	119
D.R.Kapizova, A.N.Jumayeva, Sh.I.Temirova, I.I.Zokirov Entomofaglardagi morfologik moslanishlar haqida (koksidlir entomofaglari misolida).....	123
N.O.Odilov, M.V.Obidov Foydali mikroorganizmlarning o'simlik biomassasiga ta'sirini baholash.....	127
N.B.Fayziyeva, A.H.Vaxobov Loviya oddiy mozaikasi virusi (LoMV) ta'sirida transpiratsiya intensivligining fiziologik tahlili.....	137
Sh.X.Yusupova, G.M.Zokirova, K.H.G'aniyev, I.I.Zokirov No'xat shirasi (<i>Acyrtosiphon pisum</i>) mavsumiy populyatsiya dinamikasini gibril stokastik-deterministik modellashtirish.....	144
E.A.Botirov Noctuini tunlamlari (Lepidoptera, Noctuidae) xilma-xillik ko'rsatkichlarining ekotopik tahlili.....	150
S.S.Umarov Farg'ona vodiysida kulrang g'oz <i>Anser anser</i> (Linnaeus, 1758) (Aves: Anatidae) ning tarqalishi va qishlovchi populyatsiyalari holati.....	155
E.A.Botirov Farg'ona vodiysi Noctuini tunlamlarining (Lepidoptera, Noctuidae) rivojlanish sikli, fenologiyasi va ozuqa o'simliklari bilan trofik aloqalari.....	161

GEOGRAFIYA

O.I.Abdug'aniev, E.G'.Maxkamov, KH.Abdullaeva Farg'ona viloyatida agroturizmni rivojlantirishda tabiiy sharoit va rekreatsion infratuzilmaning ahamiyati.....	167
D.G'.Mo'minov Landshaft va undan foydalanish imkoniyatlarining hududiy jihatlari (Farg'ona viloyati misolida).....	176
M.R.Qoriyev, G.R.Toshmirzayeva Global iqlim ilishini tuproq qurg'oqchiligiga ta'siri (Shimoliy Farg'ona tuproqlari misolida).....	182
I.I.Muxitdinov Farg'ona viloyatining umumiy kriminogen vaziyati va uning hududiy farqlari.....	189
B.B.Umarov Andijon viloyati geoekologik holatini geografik axborot tizimlari yordamida baholash.....	194
I.Z.Akaboyev, Z.Y.Ayubova, D.B.Ro'zmatov Chust tumani aholisini balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini o'rganish.....	198
E.A.Soliyev, M.A.Kosimov, I.Z.Akaboyev Global iqlim o'zgarishi sharoitida Farg'ona vodiysi iqlimidagi o'zgarishlar.....	205
B.X.Kamolov Ekoturistik hududlarning imkoniyatlarini GAT texnologiyalari asosida aniqlash va kartalashtirish (Namangan viloyati misolida).....	211
N.S.Pardaev Surxondaryo viloyati mehnat resurslari tarkibidagi o'zgarishlar.....	217
A.F.Raxmatov Ekologik zo'riqishni kamaytirish orqali qishloq xo'jaligida barqarorlikni taminlash.....	222
B.Y.Zikirov, H.Z.Tilovberdiyeva Sirdaryo viloyatida yashil maydonlarning hududiy jihatlari va tahlili.....	226
O'.K.Nargizaxon Diniy turizmni rivojlantirishda ziyoratgohlarning o'rni va ahamiyati.....	232
O.I.Abdug'aniyev, D.B.Kosimov Ekologik karkas – jamiyatning barqaror rivojlanish strategiyasining asosi sifatida.....	237
X.A.Abdualiyev Aholi zichligini aniqlashda qo'llaniladigan an'anaviy usullar.....	249
G'.Z.Tovbayev Sirdaryo viloyati o'simlik qoplamining NDVI ko'rsatkichlar va uning gat tahlili.....	256



UO'K: 911.3 (528.94)

CHUST TUMANI AHOLISINI BALANDLIK MINTAQALARI BO'YICHA JOYLASHUVINI O'RGANISH**ИЗУЧЕНИЕ РАЗМЕЩЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ЧУСТСКОГО РАЙОНА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ВЫСОТЫХ ПОЯСОВ****STUDYING THE LOCATION OF THE POPULATION OF CHUST DISTRICT ACCORDING TO ALTITUDE REGIONS****Akaboyev Ismatulla Ziyadulla o'g'li¹** ¹Namangan davlat universiteti, o'qituvchi**Ayubova Zulayho Yoqubjon qizi²** ²Namangan davlat universiteti, Geografiya yo'nalishi iqtidorli talabasi**Ro'zmatov Doniyorbek Boxodirjon o'g'li³**³Namangan davlat universiteti, Geografiya yo'nalishi iqtidorli talabasi**Annotatsiya**

Maqolada Namangan viloyati Chust tumani aholisining balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvi va zichlik xususiyatlari o'rganilgan. Aholining relyefga bog'liq holda joylashuvida tuman aholi punktlarining dengiz sathidan balandligi GAT dasturlari asosida aniqlangan va tumanning 1:230 000 masshtabli topografik xaritasi yaratilgan. Aholi punktlari balandligiga ko'ra kichik guruhlar ajratilgan va shu asosda tuman aholi punktlari guruhlariga bo'lingan. Tadqiqotni amalga oshirishda geografik taqqoslash, kartalashtirish va statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Аннотация

В статье изучены особенности расселения и плотности населения Чустского района Наманганской области по высотным поясам. При расположении населения в зависимости от рельефа высота населенных пунктов района над уровнем моря была определена на основе программ ГИС, и была создана топографическая карта района в масштабе 1:230 000. Населенные пункты делились на подгруппы по высоте, и на этом основании районные поселения делились на группы. При проведении исследования широко использовались методы географического сравнения, картографирование и статистического анализа.

Abstract

The article explores the location and density characteristics of the population of Chust district, Namangan region by altitude region. In the location of the population depending on the relief, the height of the settlements of the district above sea level was determined on the basis of the programs of the geographic information system, and a topographic map of the district with a scale of 1:230,000 was created. The settlements are divided into small groups according to their height, and on this basis the district settlements are divided into groups. Methods of geographical comparison, cartanization and statistical analysis were widely used in the implementation of the study.

Kalit so'zlar: Namangan viloyati, Chust tumani, aholi, aholi zichligi, aholi joylashuvi, balandlik mintaqalari, aholi punktlari, tabiiy omillar, ijtimoiy- iqtisodiy omillar.

Ключевые слова: Наманганская область, Чустский район, населения, плотность населения, размещение населения, высотные пояса, населенные пункты, природные факторы, социально-экономические факторы.

Key words: Namangan region, Chust district, population, population density, population location, altitude regions, settlements, natural factors, socio-economic factors.

KIRISH

Bizga ma'lumki, aholining joylashuvi bir qancha tabiiy, tarixiy va iqtisodiy - ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida asosan tabiiy sharoit omillari katta rol o'ynaydi. Aholining balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini o'rganish geografiya, geodemografiya, iqlimshunoslik va ijtimoiy – iqtisodiy fanlar uchun muhim ahamiyatga ega. Sababi, bu masala aholining yashash tarzi, tabiiy resurslardan foydalanish masalasi, tabiiy landshaftlarga ta'siri, migratsiya jarayonlaridagi ishtiroki

GEOGRAFIYA

va iqlim o'zgarishiga moslashuvini tushunishga yordam beradi. Dunyoda eng ko'p aholi dengiz sathidan 500 metrgacha bo'lgan balandliklarda ya'ni, tekisliklarda yashaydi. Lekin ular quruqlikning atigi 28 foizini egallaydi. Aholisining katta qismi dengiz sathidan 1000 m balandlikdagi tog'li hududlarda yashaydigan Meksika, Peru, Efiopiya, Afg'oniston va boshqa shunga o'xshash tog'li hududlarda joylashgan mamlakatlar bundan mustasno. Masalan, Tibetda dengiz sathidan 5000 m va undan balandliklarda ham aholi yashaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ushbu maqolada hududi tekislik, tog' oldi va tog'li mintaqalardan iborat bo'lgan Namangan viloyati Chust tumani aholisini balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini o'rganish **maqsad** qilib olindi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- 1) Chust tumani aholi punktlari aholisini balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini o'rganish;
- 2) Chust tumani aholi punktlarini dengiz sathidan balandligini aniqlash maqsadida tuman topografik xaritasini yaratish;
- 3) Chust tumani hududini balandlik mintaqalari bo'yicha kichik guruhlariga ajratish va unda joylashgan aholi sonini aniqlash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston va uning mintaqalarida, xususan Farg'ona vodiysida aholi, uning hududiy tashkil etilishi, joylashuvi va unga ta'sir etadigan tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa omillarni tadqiq etish, vaqt o'tishi bilan ularning ta'sir darajasini o'zgarishlarini tahlil etish va baholashni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, A.A.Qayumov, T.N.Mallaboyev, L.P.Maksakova, M.R.Bo'riyeva, A.S.Soliyev [3, 6], O.B.Ata-Mirzayev, Y.I.Ahmadaliyev [7, 8], Z.N.Tojiyeva [4], Sh.Z.Jumaxanov [5, 9, 10, 11, 12], R.B.Qodirov [13], X.S.Mirzaaxmedov [17], X.A.Abduvaliyev [7, 8, 18], Z.A.Temirov [14] va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.


Bugungi kunda mazkur masalaga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida Y.I.Ahmadaliyev, Z.N.Tojiyeva, Sh.Z.Jumaxanov, R.B.Qodirov, X.A.Abduvaliyev, Z.A.Temirov kabilarning ishlari alohida ajralib turadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda geografik taqqoslash, kartalashtirish va statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan. Shuningdek, aholining gipsometrik balandliklar bo'yicha joylashuvini o'rganishda geografik axborot tizimlari va masofadan zondlash ma'lumotlaridan ham foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Chust tumani Namangan viloyatining shimoliy qismidagi tog' oldi mintaqasida joylashgan tuman bo'lib, 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Sharqdan To'raqo'rg'on, shimoli-sharqdan Kosonsoy, janub va g'arbdan Pop, janubi-sharqdan Mingbuloq tumanlari, shimoldan Qirg'iziston Respublikasi bilan G'ova, Qoraqo'rg'on va Varzik qishloq aholi punktlari orqali chegaradosh. Maydoni 0,92 ming km² bo'lib, markazi Chust shahridir.

Chust tumani aholisining balandlik mintaqalariga qarab joylashuvini o'rganish geografik, iqlimiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasining Namangan viloyatida joylashgan bu tuman balandligi jihatidan xilma-xil hududda joylashgan bo'lib, aholining joylashuvi va iqtisodiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, aholi joylashuvida eng katta ta'sir ko'rsatgan omillardan biri - suv resurslaridir. Qurama va Chotqol tog' tizmalaridan oqib tushadigan G'ovasoy, Sumsoroy, Olmossoy, Shataksoy, Karkidonsoy kabi soylar atrofidagi qishloq aholi punktlarida aholining nisbatan yuqori konsentratsiyaga ega ekanligi bu omilning qay daraja muhim ekanligini yaqqol isbotlaydi. (1-rasm)



1-rasm. Chust tumanining topografik xaritasi

Aholi soni dinamikasidagi ijobiy o'zgarishlar, albatta, uning joylashuvida o'z aksini topadi. Aholi joylashuvining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu aholi zichligidir. Mashhur olim Kovalyov S.A "Qishloq aholi manzilgohlari joylashuvi to'g'risidagi eng umumiy, batafsil tasavvurni aholi punktlarining o'rtacha zichlik ko'rsatkichi beradi"- deb ta'kidlaydi. Chust tumanining aholi zichligi Namangan viloyatidagi o'rtacha zichlikdan yuqori bo'lib, 2024-yil hisobiga 1 km² ga 304,6 kishi to'g'ri kelgan va tuman hududida viloyat aholisining salkam 10 foizi istigomat qiladi.

Aholining balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini Namangan viloyati Chust tumani misolida o'rganib chiqadigan bo'lsak, ja'mi aholini aniq sonlar va foizlarda qancha balandlikdagi hududlarda yashashini bilib olish mumkin.

Aholining hududiy mujassamlashuvi darajasi Olmos, Varzik, G'ova va Axcha qishloqlarida eng yuqori bo'lib kelmoqda (1-jadval). Olmos qishlog'iga Chust tumani aholisining 13.7 %i to'g'ri kelsa, Varzik qishlog'iga 6.8 %i, G'ova qishlog'iga 5.2 %i, Axcha qishlog'iga esa 4.0 %i to'g'ri kelmoqda. Chust shahrida tuman aholisining 34.4 %i istiqomat qilib kelmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qishloqlar aholi soni bo'yicha eng yuqorida turuvchi aholi punktlari bo'lsa, Qiziltepa, Chustnon-Do'stlarobod qishloq aholi punktlari va Yangiobod qishloq aholi punktlari aholi soni bo'yicha eng oxirgi o'rinlarni egallab kelmoqda. Xususan, Yangiobod qishlog'iga tuman aholisining atigi 0.6 %i to'g'ri keladi. Aholining bunday notekis taqsimlanishiga tabiiy sharoit va relyef kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval

Chust tumani qishloq aholi punktlari va ulardagi aholi soni

T/r	Qishloq aholi punktlari nomi	MFY nomlari	Aholi soni (01.10.2023 y.) ming, kishi	Jami aholi soni (01.10.2023 y.) ming, kishi
1	Axcha qishlog'i	Ko'cha MFY	3529	10 173
		Guzar MFY	3361	
		Yettiqo'rg'on MFY	3283	
2	Boymoq qishlog'i	Boymoq MFY	2618	5021
		Istiqlof MFY	2403	

GEOGRAFIYA

3	Baliqchi qishlog'i	Baliqchi MFY	3324	3324
4	Xisorak qishlog'i	Xisorak MFY	3930	7854
		Yangiyer MFY	3924	
5	Karkidon qishlog'i	Ko'ktosh MFY	3089	12 052
		Bog'ormos MFY	2311	
		Yutmas MFY	3003	
		Laylakuya MFY	3649	
6	Karnon qishlog'i	Yuqori Karnon MFY	4326	6955
		Quyi Karnon MFY	2629	
7	Shoyon qishlog'i	Shoyon MFY	3374	3374
8	Olmos qishlog'i	Birlik MFY	4243	34 763
		Shuvar MFY	3302	
		Bozorboshi MFY	3198	
		Toymas MFY	3278	
		Toymasobod MFY	4336	
		Qorakapa MFY	5522	
		Buloqboshi MFY	5489	
		Munchoqtepa MFY	5395	
9	Og'asaroy qishlog'i	Og'asaroy MFY	3622	3622
10	Yorqishloq qishlog'i	Yorqishloq MFY	5501	5501
11	Tepaqo'r'gon qishlog'i	Tepaqo'rg'on MFY	4078	4078
12	Qayirma qishlog'i	Qayirma MFY	5129	5129
13	Varzik qishlog'i	Bolo MFY	3359	16 651
		Pilol MFY	3330	
		Yangichak MFY	3280	
		Maydon MFY	3312	
		Qal'ayi Poyon MFY	3370	
14	Qaraqo'rg'on qishlog'i	Qaraqo'rg'on MFY	4404	4404
15	G'ova qishlog'i	G'ovasoysohili MFY	4364	13 125
		Yangihayot MFY	2819	
		Tinchlik MFY	2621	
		Yuqori MFY	3321	
16	Varzigon qishlog'i	Varzigon MFY	4150	4150
17	Sarimsoqtepa qishlog'i	Sarimsoqtepa MFY	4681	4681
18	Qiziltepa qishlog'i	Qiziltepa MFY	2625	2625
19	Chustnon-Do'stlarobod qishlog'i	Chustnon-Do'stlarobod MFY	2425	2425
20	Damobod qishlog'i	Dam MFY	4089	4089
21	Mashxad qishlog'i	Mashxad MFY	4361	4361
22	Yangiobod qishlog'i	Yangiobod MFY	1527	1527
23	Sho'rbuloq qishlog'i	Sherbilak MFY	2718	2718
24	Qadimiy qishloq	Zvutqand MFY	4082	4082
25	Chust shahri	Kamarsada MFY	3380	87 072
		Pansada MFY	5336	
		Bofanda MFY	3405	
		Sabzazor MFY	3542	
		Yakkabuloq MFY	4255	
		Mehnatobod MFY	4286	
		Xo'jaobod MFY	3340	
		Dehqonobod MFY	2140	
		Birlik MFY	2605	
		Navbahor MFY	4223	
		Bog'i-eram MFY	3257	

	Sadacha MFY	4820	
	Chust gulzori MFY	5187	
	Navro'z MFY	3361	
	Zarafshon MFY	4221	
	Serob MFY	4860	
	Do'zonda MFY	3689	
	Guliston MFY	4190	
	Do'stlik MFY	5782	
	Mustaqillik MFY	5608	
	Yangi bog'ishamol MFY	2658	
	Bibiona MFY	2927	

Izoh: Jadval Namangan viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib Chust tumani qishloq aholi punktlarida yashovchi aholi soni va ularning asosiy mashg'ulot turlari tahlil qilib chiqildi. Tahlil natijalariga ko'ra, Chust shahri – aholi soniga ko'ra, eng yuqori o'rinlarda turadi. Aholisi soni 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 87072 ming kishini tashkil qiladi. Tumanda, "Chustmash", "Paxta tolasi", "Barion" aksiyadorlik jamiyatlari, milliy pichoqlar yasash, "Suv mash" korxonalari, qishloq xo'jaligi mashinalari uchun ehtiyot qismlari ishlab chiqarish va bir qancha savdo korxonalari mavjud. Chust tumani o'zining pichoqlari bilan jahon ko'rgazmalarida ishtirok etgan. Chust do'ppilari 1968-yilda Nyu Dehli, 1969-yil Monreal, 1970-yilda Tokio va Poznan shaharlaridagi jahon ko'rgazmalarida yuqori baholangan.

Olmos qishlog'i - Chust tumanidagi aholi soni va maydoni bo'yicha eng yuqori qishloq aholi punkti hisoblanib, 8 ta MFY lardan iborat. Aholi soni 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 34763 kishi. Aholisining asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Bu aholi punkti o'zining qovun tarvuzlari bilan boshqa aholi punktlaridan yaqqol ajralib turadi.

Varzik qishlog'i - Aholi soni 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 16651 kishi bo'lib, Chust tumanida aholi soni bo'yicha 2-o'rinni egallaydi. Aholisi asosan bog'dorchilik mahsulotlarini yetishtirish, shuningdek, loviya, olma kabi bir qator qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sotish bo'yicha peshqadamlik qiladi.

G'ova qishlog'i - Aholi soni bo'yicha 3-o'rinni egallab kelayotgan bu aholi punktida 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 13125 kishi istiqomat qilib kelmoqda. Qishloq xo'jaligida kartoshka, olma mahsulotlari yetishtirish va sotish yuqori hisoblanadi. Qishloq hududida terakchilikning rivojlanganligi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Karkidon qishlog'i - Aholi soni 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 12052 kishi bo'lib, asosan chorvachilikning bir necha tarmoqlari shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan pomidor, bodring, kartoshka yetishtirish bo'yicha ilg'ordir.

Axcha qishlog'i - Maydoni bo'yicha aholi punktlarida eng so'ngi o'rinlarda turishiga qaramay, bu aholi punkti 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 10173 nafar aholi soni bilan Chust tumanida 5-o'rinni egallab kelmoqda. Aholisi asosan qishloq xo'jaligida polizchilik, ayniqsa qovun, tarvuz yetishtirish va uni sotish bo'yicha peshqadamlik qiladi.

Xisorak qishlog'i - O'zining anor va olmalari bilan boshqa aholi punktlaridan ajralib turuvchi bu aholi punktida 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 7854 kishi istiqomat qilib kelmoqda. Shuningdek, sut va sut mahsulotlarini ishlab va chiqarish va sotish bo'yicha ilg'ordir.

Karon qishlog'i - chorvachilik, xususan qoramolchilikning boshqa qishloq aholi punktlariga nisbatan yuqori darajada rivojlanganligi, sut va sut mahsulotlari bilan Chust shahri aholisini ham ta'minlashga muvaffaq bo'lmoqda. Aholi soni esa, 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 6955 kishini tashkil etmoqda.

Boymoq qishlog'i - tumanning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, aholisi 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 5021 kishi. Aholi punktida asosan bog'dorchilik va chorvachilikning bir necha tarmoqlari rivojlangan.

GEOGRAFIYA

Yangiyer, Do'stlik, Rezaksoy qishloq aholi punktlarida sholichilik salmog'i yuqori. Shuningdek, qishloq xo'jaligida yeryong'oq yetishtirish va sotish rivojlangan.

Chust tumanining hududi notekis bo'lgani bois aholi punktlari turli balandliklarda joylashgan. Ma'lumki, balandlik ortib borgan sari harorat va havo bosimi pasayib, yog'in miqdori, o'simliklar turi va soni orta boradi. Bu tabiiy omillar hududlarning xo'jaligiga, ixtisoslashuviga, aholi soni va zichligiga, aholi punktlarining katta-kichikligiga, odamlarning tashqi ko'rinishi va sog'ligiga turlicha ta'sir ko'rsatgani uchun uni o'rganish yanada ahamiyatlidir. Chust tumani aholisini balandlik mintaqasi bo'yicha joylashuvini o'rganilganda, quyidagi 2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ega bo'ldik.

2-jadval

Chust tumani qishloq aholi punktlarida yashovchi aholining dengiz sathidan balandlik mintaqalari bo'yicha taqsimlanishi

Chust shahri va undagi qishloq aholi punktlari	Dengiz sathidan balandligi			Yashash hududining o'rtacha balandligi	Hududining o'rtacha balandligi
	500-700 m	700-900 m	900-1200 m		
	aholisi, ming. kishi			metrda	
Chust shahri	70 000	17 072	-	650	669
Axcha qishlog'i	3 200	6 973	-	720	700
Boymoq qishlog'i	-	5 021	-	690	715
Varzik qishlog'i	-	8 426	8225	880	889
Karkidon qishlog'i	-	12 052	-	770	771
Varzigon qishlog'i	-	4150	-	855	860
Karnon qishlog'i	-	6 955	-	710	727
Olmos qishlog'i	17 683	17 000	-	670	676
Og'asaroy qishlog'i	-	3 622	-	810	818
Yorqishloq qishlog'i	2750	2 801	-	690	694
Qayirma qishlog'i	2 500	2 629	-	660	669
G'ova qishlog'i	-	-	13 125	945	953
Hisorak qishlog'i	7 854	-	-	610	618
Sarimsotepa qishlog'i	4681	-	-	570	577
Qiziltepa qishlog'i	-	2 625	-	720	740
Yangiobod qishlog'i	1 527	-	-	600	607
Chustnon-Do'stlarobod qishlog'i	2 425	-	-	525	534
Qaraqo'rg'on qishlog'i	-	-	4 404	990	1007
Tepaqo'rg'on qishlog'i	2 000	2 078	-	680	683
Sho'rbuloq qishlog'i	-	2718	-	757	760
Damobod qishlog'i	-	4089	-	795	805
Shoyon qishlog'i	1 300	2 074	-	690	714
Baliqchi qishlog'i	-	3 324	-	840	848

Izoh: Jadval Namangan viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Tuman hududini geografik axborot tizimlari, masofadan zondlash ma'lumotlari va yaratilgan 1:230 000 masshtabli topografik xaritasi asosida dengiz sathidan balandligi bo'yicha 3 ta kichik guruhlariga bo'lindi. Kichik hududlarda joylashgan aholi punktlari va ularda yashovchi aholi soni tahliliy o'rganildi. Dengiz sathidan balandligi bo'yicha 3 ta kichik guruhlarining balandliklari quyidagicha taqsimlandi: birinchi guruh 500-700 metr, ikkinchi guruh 700-900 metr va uchinchi guruh 900-1200 metr. Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki Chust tumanining 47 foizdan ortiq aholisi (115 920 kishi) dengiz sathidan 700 metrgacha bo'lgan balandlikda yashaydi, 42 foizdan ortiq aholi (103 609 kishi) esa dengiz sathidan 700 metrdan 900 metrgacha bo'lgan balandlikda yashaydi, 11 foizga yaqin aholi (25 754 kishi) esa dengiz sathidan 900 metrdan baland bo'lgan hududlarda yashab kelmoqda. Aholisining asosiy qismi 700-900 metrdan baland bo'lgan mintaqalarda joylashganligi bilan Varzik, G'ova va Qaraqo'rg'on qishloqlari ajralib turadi. Aholisining asosiy qismi dengiz sathidan 500-700 metrgacha bo'lgan balandlikda joylashganligi

bilan Chust shahri, Olmos, Hisorak, Sarimsoqtepa, Yangiobod va Chustnon-Do'stlarobod qishlolari ajralib turadi.

Albatta aholini bundan joylashuviga tabiiy sharoitning ta'siri xususan, iqlimiy va suv – yer resurslarining ta'siri kattadir. Zero, mualliflar tomonidan ishlangan yuqoridagi topografik xaritada qarab ko'rish mumkinki tuman hududidagi aholi asosan G'ovasoy, Sumsorsoy, Olmossoy va Ko'kso'reksoy havzalarining yuqori, o'rta va quyi oqimlarida joylashganligi bilan ajralib turibdi.

XULOSA

Aholini balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini tadqiq etish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish, tabiiy resurslarni barqaror foydalanishga erishish va iqlim o'zgarishiga moslashish jarayonlarida muhimdir. Zero, balandlik mintaqalarida joylashgan hududlar ko'pincha daryo manbalariga yaqin bo'ladi. Bu joylarda suv resurslarining boshqarilishi qishloq xo'jaligi va ichimlik suvi ta'minotini belgilaydi. Balandlikka qarab havo harorati va bosimining o'zgarishi turli yashash sharoitlarini yaratadi. Bu esa nisbatan baland hududlarda yashovchi aholining o'ziga xos hayot tarzi, mehnat faoliyati va sog'ligini iqlimiy sharoitlarga moslashishiga olib keladi. Tekislik mintaqalari qishloq xo'jaligi uchun qulay bo'lsa, nisbatan baland mintaqalarda yaylov va chorvachilik ustunlik qiladi. Balandlik mintaqalardagi qishloq xo'jaligi usullari mahalliy aholining an'anaviy bilim va tajribalariga asoslangan bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. "2022 — 2026-yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-172-son Qarori, 18.03.2022 yil. <https://lex.uz/uz/docs/-5914975>
2. Mirziyoyev Sh.M. "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2022 yil 28-yanvar. <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. Солиев А.С., Назаров М.И. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). –Ташкент.: "Fan va texnologiya", 2009. 212 б.
4. Тожиёва З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари// геог.фан.док. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Ташкент.; 2017 й. 225-б.
5. Jumaxanov Sh.Z. Namangan viloyati geodemografiyasi. Monografiya. – Namangan: "Namangan", 2022. – 116 b.
6. Soliyev A., Mahamadiyev R. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari (Oliy o'quv yurtlari geografiya fakultetlari talabalari uchun darslik) Toshkent -2005.-123 b.
7. Аҳмадалиев Ю., Абдувалиев Ҳ. Фарғона водийсида аҳоли жойлашувини тадқиқ этишда ландшафт ёндашувининг қўлланилиши // Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 57-жилд. –Тошкент, 2020. –Б. 83-87 б.
8. Аҳмадалиев Ю.И., Абдувалиев Ҳ.А. Фарғона водийсида аҳоли жойлашувини ландшафт омили асосида такомиллаштириш. Монография.-Фарғона.: "Нашриёт", 2021.-154 б
9. Жумахонов Ш., Мирзаахмедов Х., Абдурахманов М. Аҳоли кўрғонлари шаклланишининг тарихий-географик омиллари// Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 29-жилд. Тошкент, 2007.-120-123
10. Жумаханов Ш.З., Тошпўлатов А.М. Кичик ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш кўрсаткичлари ва муаммолари // Ўзбекистон География Жамиятининг Ахборотномаси / Бош муҳаррир: Ф.Ҳ.Ҳикматов. –Тошкент, 55-жилд 2019. –Б. 88-94 б. ISSN: 0131-9614
11. Жумаханов Ш.З. Наманган вилояти аҳолиси ҳудудий таркибини такомиллаштириш. номз. дисс. –Т., 1998.
12. Жумаханов Ш.З., Мирзаахмедов Ҳ.С. Дарё ҳавзаларида аҳоли жойлашувининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбекистон География Жамиятининг Ахборотномаси. –Ташкент., 36-жилд 2010, 80-83 б.
13. Қодиров Р.Б. Ўзбекистон Республикасининг Фарғона водийси вилоятлари меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш йўллари // География фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2021. 63 б.
14. Темиров З.А. Фарғона водийси вилоятларида демографик жараёнлар ривожланишининг ўзига хос ҳудудий хусусиятлари. – География фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Ташкент., 2021. – 120 б.
15. Ибрагимов Л.З. Жануби-ғарбий Ўзбекистонда аҳоли бандлигининг иқтисодий географик хусусиятлари. – Тошкент: ЎЗМУ, 2022. – 243 б.
16. Акабоев, И. З. (2019). Важность картирования населения в географических исследованиях. *Экономика и социум*, (12 (67)), 162-164.
17. Mirzaahmedov, X. S., & Akaboyev, I. Z. O. G. L. (2021). Mapping the population of Namangan region using modern GIS technologies. *Theoretical & Applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, 12, 1070-1074.
18. Abduvaliyev X. A. et al. Geomorfologik omilning aholi joylashuviga ta'siri //Экономика и социум. – 2024. – №. 2 (117)-1. – С. 64-68.
19. Gulimatov I. B. et al. Shahar aholi punktlarini tadqiq qilishda GAT hamda masofadan olingan ma'lumotlar bazasini yaratish (Xorazm viloyati misolida) //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-2 (109). – С. 140-150.
20. <https://www.namstat.uz/uz/> Namangan viloyati statistika boshqarmasi rasmiy sayti ma'lumotlari.
21. Google Earth Pro Web kartografik dasturi, Landsat va Copernicus Yer sun'iy yo'ldoshlaridan olingan suratlar. <https://earth.google.com/web/>